



GIJJALARGA QARSHI TABIIY SUPER CLEAN MAHSULOTI TARKIBI VA SAMARADORLIGI

G'oiyova Parizod Muxtor qizi

Mannopova Umidaxon Abdullaxat qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, Urug'chiligi va Dorivor o'simliklarni yetishtirish" kafedrasida assisenti

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti. Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17480982>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 25-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

Qalampirmunchoq,
rastaropsha, qovoq mag'izlari,
makkai sano, vitaminlar,
kukurbitin.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Super clean mahsulotiga qo'shilgan o'simliklarning bioekologiyasi, botanik ta'rifi va dorivorlik xususiyatlari va bu mahsulotning organizmga ta'siri va boshqa kimyoviy dorilardan avzalliklari to'g'risida va bu mahsulotni tayyorlash usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

So'ngi yillarda gijjalarga bilan zararlanish inson salomatligi uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Kimyoviy antiparazitar preparatlar ko'pincha nojo'ya ta'sirga ega bo'lgani sababli, tabiiy o'simliklardan tayyorlangan vositalarga qiziqish ortib bormoqda. Bu Super clean mahsulotimizning tarkibi asosan 4 xil o'simlikdan tashkil topgan, qalampirmunchoq, rastaropsha, qovoq mag'izlari va makkai sano.

Qalampirmunchoq-mirtadoshlar oilasiga mansub o'simliklar turkumi. Doim yashil efir moyli daraxt (balandligi 35m gacha) yoki buta. Tropik va subtropiklarda, ayniqsa, Sharqiy Osiyo va Janubiy Amerika va Avstraliyada 700 (1000)ga yaqin turi ma'lum. Tanasining pastki qismi shox-shabbasiz, barglari butun uzunligi 20sm, gullari to'pgulga yig'ilgan. Tog' va vodiylardagi mussonli o'rmonlarda, Avstraliyada evkalipt o'rmonlarida o'sadi. 30ga yaqin turi (Tanzaniya, Hindiston, Shri Lanka, Indoneziya, Braziliya va boshqa ko'plab tropik mamlakatlarda) ekiladi.



Bo'yi 10-12m, barglari qayishsimon, qarama-qarshi joylashgan, gullari mayda, to'pgulga yig'ilgan, tojibarglari oq yoki pushti. Mevasi rezavorsimon, bir urug'li rangi qizil. Tanasida xushbo'y moddali bezchalari bor. Qurutilgan g'unchasidan efir moyi olinadi va ziravor sifatida ishlatiladi. Guli va gulumurtagidan olingan qalampirmunchoq moyi (17-20% moy va 20% oshlovchi modda) parfumeriya sanoatida, tibbiyotda qo'llaniladi.

Qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasi 130 turkum va 900 ga yaqin turlarni o'z ichiga olib, tropik va subtropik mintaqalar, sernam tropik o'rmonlardan cho'llar sahrolargacha bo'lgan hududlarda o'sadi. Afrika, Osiyo va Amerikada bu o'simliklar ayniqsa keng tarqalgan. Guli ikki jinsli, yirik (mayda), sariq chetdan changlanadi. Mevasi turli shakl va rangda, eti och sariqdan to'q sariqqacha. Oshqovoq mevasi tarkibida 15-18% quruq modda, 4-11% qand, askorbin kislota, karotin, tiamin, riboflavin, azotli birikmalar, 0,7% biriktiruvchi to'qima, 0,5% oqsil 0,2% yog', 0,6% kul moddasi, urug'ida 20-40% yog' bor. Qaynatilib, dimlab, qovurib iste'mol qilinadi, turli pishiriqlar, somsalar, nonlar, murabbo va sharbat tayyorlanadi.

Oq karrak rus tilida va aptakalarda rastaropsha deya ishlatiladigan shifobaxsh dorivor o'simlikni xalqimiz tabobatda azaldan qo'llab keladi. Oq karrak tarkibi turli xil vitaminlar va mikro elementlarga mo'l. U, A, E, F, K va V guruhga kiruvchi darmondorilarga boy. Oq karrakning bir grammi 16,6 mg Ca, 9,2 mg Mg, 0,08 mg Fe, 0,1mg Mn, 1,16 mg sink, 22,9 mg Se, 0,09 mg J kabi darmondorilar bor. Oq karrakning shifobaxshlik xususiyatlari: U varikoz tomirlari, poliartrit, xoletsestit, jigar distorfiyasi, zaharlanish, shu jumladan, spirtli ichimliklar, diabet va tish og'rig'ini davolashda ham ishlatiladi. Bundan tashqari, u nur va kimyoterapiya kurslaridan keyin ham tavsiya etiladi. Farmakologiyada uning barglari, ildizlari, urug'lari ishlatiladi, ulardan yog' va shrot hosil qilinadi. Uning yog'i turli xil teri kasalliklarini, reproduktiv tizimining ayrim dardlarini davolashda ishlatiladi. U jarohatlarni mukammal davolash, ayniqsa yong'indan keyingi yaralarni davolash xususiyatiga ega. Oq karrak aptekalarda bir nechta dorivor shakllarda sotiladi. Eng keng tarqalgani - o'simlik tabletkalari, shuningdek, kapsulalari yog'i, kukuni. Sano (Cassia), makkai sano ko'p yillik o't, buta yoki kichik daraxtlar turkumi. Poyasi shoxlangan, pastki qismidagi shoxlari yerga tegib o'sadi. Bargi murakkab, juft patsimon, 5-10juft ingichka bargchali, guli oq yoki qizg'ish, to'pguli

shingilsimon. Changchisi 10ta, shundan 3tasi reduksiyalangan. Asosan, tropik va subtropiklarda (ayniqsa, Amerikada) o'sadigan 500-600 turi bor. To'mtoq bargli, ingichka bargli va o'tkir bargli sano dorivor. Arabistonda tarqalgan. O'rta Osiyo, Qozog'iston, Zakavkazye, Ukrainaning janubida o'stiriladi. O'tkir bargli sanoning bargi tarkibida ichni yumshatuvchi antraglikozidlar bor. Bargidan poroshok tayyorlanadi, qaynatilib suvi ichiladi. Bu o'simliklarning har biri gijja bilan zararlangan insonlarga juda katta yordam beradi. Bolalar gigienaga amal qilmaganligi tufayli gijja qurtlari judam ko'p bo'ladi. Biz esa bolalarni davolash uchun darhol kimyoviy dorilarga yuzlanamiz, lekin u kimyoviy gijjaga qarshi dorilar tarkibida albendazol moddasi bo'ladi u esa jigarni eritish xususiyatiga ega. Bizni tabiiy mahsulotimizni boshqa kimyoviy dorilardan avzalligi va foydali xususiyatlari quyidagilardan iborat. Qalampirmunchoq 50grammi olamiz, bu o'simlik gijjalarga qiron yatkazdi. Qovoq urug'i mag'izlari 200gramm olamiz, bu o'simlik tarkibida kukurbidin moddasi bor bu modda gijjalarga zaharli ta'sir ko'rsatadi va gijjalarni mushak qismini falaj qiladi. Rastaropsha 50 grammi olamiz, bu o'simlik gijjalardan chiqayotgan zaharli moddalardan jigarni himoya qiladi. Makkai sano 20 gramm olamiz, bu o'simlik ichni yengil surib, gijjalarni organizmdan chiqib ketishga yordam beradi. Tayyorlanish usuli: hamma o'simligimizni mini tegirmonchada kukun holatiga keltirib olamiz. 21 kun davomida ertalab va kechqurun ovqatdan 20 minut oldin, 1choy qoshig'ini 200 gramm suvga asal qo'shib, damlab quyqasi bilan ichirib boriladi.

Bu mahsulotimizni marmelad holatida ham qilib ko'rdik, bunda ham barcha o'simliklarimizni kukun holatiga keltirib olamiz bunga endi qo'shimcha qilib, lavlagidan ham foydalanganmiz. Chunki bu o'simlik imunitetni ko'tarish xususiyatiga ega. 200 gramm qaynayotgan lavlagili suvga jelatin solib aralashtiramiz, bir xil massa hosil bo'lgandan keyin, kukun holatdagi o'simliklarimizga quyamiz va aralashtirib asal qo'shamiz. Keyin qoliplarga quyamiz, birozdan so'ng jelatin qotadi. Bu usulimiz esa iste'mol qilish uchun juda qulay hisoblanadi.

Xulosa: Super clean mahsulotimiz 100% tabiiy inderegentlardan tashkil topgan bo'lib, gijjalarga qarshi yuqori biologik faollikka ega. Tarkibidagi o'simliklar gijjalarni organizmdan chiqarish jarayonini tezlashtiradi, ichak mikroflorasini me'yoriga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi va ekologiya.
2. O'rmon dorivor o'simliklari Toshkent 2014yil 139-141betlar.
3. Dorivor o'simliklar florasi va sistematikasi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Andijon-2024